

INVESTITSİYALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI

Mamatkulova Nodira Maxkamovna

Dotsent, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Baxtiyorov Azizbek Alisher o'g'li

51-22 QIKMo' guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolda investitsiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash usullari tahlil etilgan bo'lib, bu orqali investitsiyalar samaradorligini oshirish imkoniyatlari ham ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *investitsiyalar, investitsion loyiha, inflyatsiya, sof real qiymat, xarajatlar va foydalilikni taqqoslash, kapitalning foydalilik darajasi, investitsion xarajatlar.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarning roli va ahamiyati benihoya kattadir. Investitsiya tushunchasi investitsion loyihalarni amalga oshirish natijalarini kelajakdagi iste'mol va shaxsiy ehtiyojlar uchungina emas, balki uzoq kelajak uchun ham zarurdir.

Mamlakatga kiritilgan investitsiyalar barcha tarmoqlar kabi yengil sanoat va to'qimachilikka ko'proq jalb qilinmoqda. Chunki yetishtirilgan xom-ashyoni arzon garovga eksport qilishdan ko'ra, uni qayta ishlab tayyor mahsulot sifatida sotish afzaldir. Bu esa mamlakatimizdagi ishlab chiqarishni rivojlantirish, xalq turmush farovonligini oshirish va aholini ish bilan ta'minlash muammolarini yechishga imkon beradi.

2024 yil iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1,3 baravar ko'payib, 36 milliard dollardan oshdi. Bularning hisobiga yil boshidan buyon qo'shimcha 70 trillion so'mlik qiymat beradigan 560 ta yirik va o'rta loyihalar ishga tushirildi. Kelasi yildan eksportni yana 1 milliard dollarga oshirish imkoniyati paydo bo'ldi. Investitsiya kiritilishi bilan unga bog'liq bir qancha mamlakat va korxonalar miqyosidagi muammolar ham paydo bo'ldi³.

Mamlakat miqyosida – kiritilgan investitsiyani qaysi tarmoqqa yo'naltirish, qancha miqdorda sarflash va qanday qilib kam sarflab, ko'p daromad olish muammolari.

Korxona miqyosida esa, korxonaga jalb qilingan investitsiyalarni ishlab chiqarishning qaysi yo'nalishiga, xom-ashyoga, ishlab chiqarish vositalariga yoki ish haqiga va boshqa-boshqa turli xil muammolar kelib chiqadi.

Bu muammolarni hal qilish uchun avvalo, investitsiyalardan keladigan foydani tahlil qilish lozim. Buning uchun albatta, aniq va isbot qilingan yo'lni tanlash talab qilinadi. Ya'ni, birinchi navbatda, kiritilgan investitsiya kelajakda qancha foyda keltirishini aniqlash kerak. Aynan ana shu holatlarni e'tiborga olishda matematik formulalar alohida ahamiyatga ega. Xuddi shu maqsadda, kiritilayotgan investitsiyani kelajakdagi keltiradigan foydasini topish uchun quyidagi

³ <https://president.uz/oz/lists/view/7775>

$$FV_d = NPV(1+i)^T + N_o(1+i)^T;$$

$$FV_N = FV_d - NPV(1+i)^T;$$

formulalarni kiritib, undan foydalanish mumkin:

FV_d -kelgusida kutilayotgan qiymat;

NPV -hozirgi sof real qiymat;

N_o -investorning xarajati;

i -inflyatsiya darajasi;

T -investitsiya loyihasidan foydalanish davri;

FV_N -investorning kelgusida kutilayotgan kapital qiymati.

Bu yerda investorning kelajakdagi foydasi ko‘zda tutiladi, bu esa albatta, korxonaning ham foydasi bo‘lib xizmat qiladi.

Agar yuqorida berilgan formulalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, kiritilayotgan mablag‘lar qanchalik ko‘p bo‘lsa, kutilayotgan qiymat ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Bu yerda foydalanish davriga alohida e‘tibor berilsa, davrning ortishi katta o‘zgarishlarga olib kelishini kuzatishimiz mumkin.

Masalan, NPV yoki N_o larni orttirish hisobiga kutilayotgan foyda ham ortib boradi, lekin bunda investorning ulushi ham ortishini ko‘zda tutish lozim. Chunki, foydaning kelgusidagi qiymatini aniqlash ushbu qiymatning o‘sib borish jarayoni bilan, ya‘ni qo‘yilgan summalar dastlabki miqdori foiz summasini (foiz to‘lovlarini) qo‘shish natijasida bosqichma-bosqich ko‘payib borishi bilan bog‘liqdir. Ushbu summa foiz stavkasi bilan hisoblanadi.

Agar T -ni 100% orttirsak, u holda foyda 100% ortadi.

Buni yuqoridagi (3.1) formuladagi kattaliklarni o‘rniga qiymat qo‘yish bilan tekshirish mumkin.

(3.1) formulani (3.2) formulaga olib borib qo‘ysak,

$$FV_N = NPV(1+i)^T - NPV(1+i)^T = N_o(1+i)^T;$$

ko‘rinishdagi formula hosil bo‘ladi. Bu formuladan investorning kelajakdagi kutilayotgan kapital miqdori o‘zgarishini aniqlash yana ham oson kechadi.

Bundan ko‘rinadiki, investorning kelajakdagi kutilayotgan kapitali kiritgan kapital qiymatiga, inflyatsiya darajasiga va foydalanish davrlariga bog‘liq ekan. Lekin, shuni yodda saqlash lozimki, inflyatsiya darajasi ortishi bilan kutilayotgan qiymat ham ortib boradi, ammo bu kapitalning foydalilik darajasini aniq ko‘rsatib bera olmaydi, chunki mamlakat miqyosida inflyatsiya yuz beradigan bo‘lsa, chet el investorlari uchun foydalilik darajasi yuqori bo‘ladi. Agar mamlakat tashqarisidagi inflyatsiya ro‘y bersa, u holda investor uchun kapitalning foydalilik darajasi kam bo‘ladi. Shuning uchun bu holatda, kapitaldan keladigan qiymatni bir so‘z bilan yashirin qiymat deb izohlashimiz mumkin bo‘lsa, yuqoridagi holatdan kelib chiqib, yashirin qiymatni quyidagicha ifodalashimiz mumkin bo‘ladi. Yashirin qiymat bu inflyatsiya darajasining o‘zgarishi bilan haqiqatdagi nominml tarzda ishlab chiqarishga kirib kelgan qiymat o‘rtasidagi farq bo‘lib, bu inflyatsiya soyasida ya‘ni,

valyuta kursi o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi. Yana bunda inflyatsiya jarayonini xalqaro yoki mamlakat miqyosida ro'y berayotganligiga ham e'tibor berish kerak.

Investitsion loyihani qabul qilishda esa uning foydaliligi va xarajatlarning o'zaro nisbati hisobga olinadi. Investitsiyaning foydalilik darajasi uni qo'llashdan kutilayotgan sof foyda me'yori bilan o'lchanadi va sarmoyador uni olishga umid bog'laydi. Xarajatlar esa qarz mablag'larini jalb etish uchun sarf qilinadigan foizlar miqdoridir.

Tabiiyki sarmoyador o'z kapitalini kutilayotgan sof foyda me'yorining qarz mablag'lari uchun to'lanadigan foiz miqdorlaridan oshirishni ta'minlaydigan loyihalarga yo'naltiradi. Shuning uchun kutilayotgan sof foyda me'yori va to'lanadigan foiz summasi investitsiyada xarajatlarni belgilovchi ikki asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Investitsion loyihani qabul qilishda turli xil boshqa omillar ham ishtirok etadi: investitsiya turi, investitsion loyiha qiymati, ko'plab o'xshash loyihalarning mavjudligi, moliyaviy resurslarning chegaralanganligi, tavakkalchilik va boshqalar.

Tadbirkorlik sub'ektlari uchun investitsiyalashning yakuniy natijasi uning foydaliligidir. Shuning uchun ham investitsion loyihani qabul qilishda quyidagi omillar hisobga olinadi:

1. Loyihaga kapitalni jalb etishda undan foyda olish mo'ljallanadi.
2. Kutilayotgan bu foyda bankda pul saqlashdan olinadigan foizdan ko'ra ko'proq daromad manbai bo'lishi mumkin.
3. Investitsiya rentabelligi inflyatsiyaning o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan taqdirdagina, u maqbul hisoblanadi.

Shunday qilib, investitsion loyiha quyidagicha:

- loyihaning arzonligi;
- inflyatsion yo'qotish tavakkalchiligining past darajada bo'lishi;
- kapital quyilmalarni qoplash muddatining qisqaligi;
- yuqori rentabellik;
- foydaliroq bo'lgan boshqa o'xshash loyihalarning majud emasligi va hokazo mezonlar orqali o'zining afzal jihatlarini namoyon eta oladi va shundagina u qabul qilinishi mumkin.

Investitsion loyihaning integral iqtisodiy samaradorligini hisoblash uchun mo'ljallangan g'arbiy usul investitsion loyihaning amal qilish davri mobaynida diskontli (muddati to'lmagan pul qaytimi) pul tushumi va to'lovlari oqimi o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Investitsion loyihaning yillik iqtisodiy samaradorligi uning qo'llanilishidan olingan yalpi tushumdan (YaT) qator to'lovlarni (T) ayirib tashlangandan so'ng qolgan sof foyda (SF) bilan o'lchanadi:

$$SF = YaT - T;$$

Kutilayotgan sof foyda investitsion loyiha uchun yo'naltirilgan mablag'ni qo'shimcha foyda olinishi ham hisoblanmoqda.

Agar korxona qarz olmay, investitsiyani moliyalashda o'z ichki mablag'laridan foydalansa, bizning hisobimizcha, bu holda ham ijobiy holat kuzatilmasligi mumkin. Chunki korxona bankdagi o'z jamg'armasidan mablag'ni investitsion loyiha uchun qo'yar ekan, u yana bankda turgan mablag'i hisobidan olinishi mumkin bo'lgan bank foizi yoki boshqa daromad manбайдan mahrum bo'ladi. Shuning uchun investitsion loyihani qabul

qilishda uning mazkur yo‘qotishlardan yuqori daromadli bo‘lishi eng asosiy o‘rinda turishi lozim.

Investitsion loyihani qabul qilishda nominal foiz miqdori emas, balki uning real foiz miqdori muhim ta‘sir kuchiga egadir. Chunki nominal foiz miqdori joriy baholarda aks ettirilsa, real foizlar esa-doimiy yoki bahoning inflyatsiyalashuvini hisobga olgan holda yuritiladi va u quyidagicha ifodaga ega bo‘lishi mumkin:

$$XFM = BFM - I;$$

Bu yerda:

XFM-real foiz miqdori;

BFM – nominal foiz miqdori;

I – inflyatsiya darajasi.

Inflyatsiya sharoitida hisob-kitoblar bir qadar boshqacha tus oladi.

Shuning uchun investitsion loyiha iqtisodiy samaradorligini hisoblashda diskont darajasini qo‘llash tamoyili bilan bir qatorda, “sof foyda me‘yori” ni ham qo‘llashni va uning atamasini kiritishni taklif etar edik. Bu usul esa, har bir investitsion loyihaga individual yondoshishga imkon beradi va uning davriy yo‘llari bo‘yicha iqtisodiy samaradorligini hisoblashning oddiy usuli bo‘la oladi. Shu asosda loyihani qo‘llashdan sof foyda olishning real hisobini amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Agar korxona uchun investitsion loyihani mablag‘ bilan ta‘minlashning imkoni cheklangan bo‘lsa, u holda qarz mablag‘lardan foydalanish orqali loyiha moliyalashtiriladi.

Investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda biz taklif etayotgan uslubiy yondashish, fikrimizcha, amaliyotda qo‘llanilayotgan usuldan quyidagi jihatlarga ko‘ra farqlanishi mumkin:

1. Taklif etilayotgan usulda investitsion loyiha iqtisodiy samaradorligini baholash amallarini bajarishda tahlilchi oddiy hisoblashlarga asoslanadi.

2. Loyiha iqtisodiy samaradorligini aniqlashda diskontli koeffitsientlarda bo‘lgani kabi jadallashtirilgan me‘yorlar tizimini ishlab chiqishga hojat qolmaydi.

3. Mazkur usulda har bir investitsion loyihaga individual yondashiladi va diskontli me‘yorni qo‘llashdagi kamchiliklardan holi bo‘ladi.

Korxonalar investitsion loyihalarni qabul qilishi uchun ularning o‘z ichki mablag‘lari yetishmaydi. Shu maqsadda tijorat banklari qarzlarini jalb qiladi. Investitsiyaga qanchalik ko‘p mablag‘ sarflansa undan kutilayotgan sof foyda me‘yori ham shunchalik kamayib boradi. Shu bilan birga, investitsiyaga sarflanadigan korxona ichki mablag‘lari hisobiga kutilayotgan sof foyda me‘yori ham shunchalik yuqori bo‘lishi mumkin. Bu omillarni hisobga olish esa kutilayotgan sof foyda me‘yori bo‘yicha investitsion loyiha qiymatini aniqlashga yordam beradi.

Bu yerda shunga ham e‘tibor berish lozimki, investitsion loyihani qo‘llashdan kutilayotgan sof foyda me‘yori qarz foizlari summasidan yuqori bo‘lgandagina u rentabelli bo‘ladi.

Shunday qilib, xarajatlar va foydalilikni taqqoslash orqali kutilayotgan sof foyda me‘yori qarz foizlari miqdori bilan tenglashgunga qadar investitsion loyihalarga tegishli mablag‘lar

ajratiladi. Shunga ko‘ra, xulosa qilishimiz mumkinki, qarzlar bo‘yicha foizlar miqdori o‘zgarishi bilan investitsion xarajatlar o‘zgaradi va turli hajmdagi investitsiyalarga kapital qo‘yishda qarz foizlar miqdori ham belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Biroq boshqa omillar ham borki, ular investitsiyaga bo‘lgan egri talab o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: investitsiya darajasi o‘zgarib turishi, investitsion loyihaga sarflanadigan xarajatlar, texnik xizmat ko‘rsatishlar qiymati, texnologik o‘zgarishlar, kapital qo‘yilmalar va ishlab chiqarish quvvatlari zaxiralari, soliq siyosati omillari. Ular ta‘sirida kutilayotgan sof foyda me‘yori oshishi yoki kamayishi tufayli investitsiyaga bo‘lgan talab ham o‘zgarib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini PF-6079 sonli farmoni
2. Савицкая Г. В. Экономический анализ. Учебник. – ИНФРА-М, 2023. - 587 с.
3. 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
4. 01.08.2018 yildagi PF-5495-sonli “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
5. 11.04.2005 yildagi PF-3594-sonli “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
6. Rajabova, S. A., & Normurodova, Q. T. (2024). OROL BO‘YI XUDUDLARINING SHO‘RLANGAN VA QURG‘OQCHIL TUPROQLARINI QAYTA TIKLASHDA BIOPREPARATLARDAN FOYDALANISH. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR, 1(1), 114-116.
7. Назирова, З. Р. (2021). ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОПТИМИЗАЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ ВЕТЕРИНАРНОГО ВУЗА НА ОСНОВЕ ИКТ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 629-633.
8. Buronov, N., & Shog‘ulomov, D. (2020). PREVENTING INFORMATION HAZARDS IN ONLINE PUBLICATIONS. In European Scientific Conference (pp. 25-26).
9. Кенжабаев, Ш. А. (1998). История обучения иностранному языку в общеобразовательной школе южных областей Узбекистана (Сурхандарьинская и Кашкардарьинская области) и пути его совершенствования на современном этапе.
10. Abdulxalimovich, K. S. (2024). VETERINARIYA YO‘NALISHIDAGI TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 39(2), 77-81.

11. Abdulxalimovich, K. S. (2024). VETERINARIYA YO ‘NALISHIDAGI TALABALARNING KASBIY KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI O ‘QITISHNING TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI. Journal of new century innovations, 46(3), 119-126.

12. Abdulkhalimovich, K. S. (2024). SCIENTIFIC-THEORETICAL PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING THE TECHNOLOGIES OF TEACHING ENGLISH IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE VETERINARY DIRECTION. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 2(2), 22-28.

13. Кенжабоев, Ш. А. (2023). ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ВЕТЕРИНАРОВ. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(3), 103-113.

14. Кенжабоев, Ш. А. (2023). ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ВЕТЕРИНАРОВ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 17, 177-183.

15. Nishonov, M., & Kenjaboev, S. (2023). THE SIGNIFICANCE OF THE USE OF CHEMICAL EXPERIMENTS IN THE STUDY OF THE TOPIC" PATTERNS OF CHEMICAL REACTIONS". Science and innovation, 2(B5), 53-56.

16. Kenjaboev, S. (2023). FEATURES OF TEACHING ENGLISH IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF VETERINARY STUDENTS. Science and innovation, 2(B7), 166-170.

17. Kenjaboev, S. (2023). THE PROBLEM AND SOLUTION OF USING ENGLISH LANGUAGE TEACHING TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF VETERINARY STUDENTS. Science and innovation, 2(B7), 159-165.